



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнали

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdu said o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobilovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna	
Oly ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda	
Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lrim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda	
motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Razvitiye polikultural'noy kompetentnosti studentov v obrazovatel'noy srede vuz'a	135
Kireeva Elvina Flaritovna	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning	
pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'rakovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limi rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
Ganiyeva Gulruk Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lakashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limi resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda	
interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini,	
ularning o'yin ampliasini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda	
IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'tasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya	
zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning	
pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdovich qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharsofova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning	
pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida)	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish	
va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'limganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida	
zamonaviy inglez tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	

INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Madmarova Gulchexra Qodirovna

Jalaquduq tumani 16-umumta'lism maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqlada innovatsion ta'lism texnologiyalari muhitini samarali shakllantirish omillari yoritilgan. Innovatsion ta'lism texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlanishiga, zamonaviy ta'limga mohiyatini ochib berish, pedagogik faoliyatni keng qamrovli yoritish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahoratni shakllantirish va darsga ijodiy yondashish, o'qitishning yangi shakl va usullarini qo'llash, o'quv jarayoni va maktab o'quvchilarining sifatini boshqarishning axborot-tahliliy ta'minoti, shuningdek, ta'lism sifatini boshqarishning axborot-tahliliy metodologiyasi kabi innovatsion yondashuvlar orqali har bir bolaning individual, sinf va parallel ravishda rivojlanishi ta'minlanishi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lism, interaktiv metodlar, AKT, intellectual rivojlanish, didaktik texnologiya, faol pozitsiya, qaror daraxti, aqliy hujum, psixologik stress, axborot-tahliliy metodologiya.

Abstract: This article explores the factors for effectively shaping an environment of innovative educational technologies. It scientifically substantiates the development of moral and ethical qualities in future teachers based on innovative approaches, reveals the essence of modern education, provides a comprehensive overview of pedagogical activities, emphasizes the formation of professional skills and creative approaches to teaching, the application of new forms and methods, the information-analytical support for managing the quality of the learning process and school education, as well as the methodology of information-analytical management of education quality that ensures individual, class-based, and parallel development of each student.

Key words: innovative education, interactive methods, ICT, intellectual development, didactic technology, active position, decision tree, brainstorming, psychological stress, information-analytical methodology.

Аннотация: В статье рассмотрены факторы эффективного формирования среды инновационных образовательных технологий. Научно обосновано развитие духовно-нравственных качеств будущих учителей на основе инновационных подходов, раскрытие сущности современного образования, всестороннее освещение педагогической деятельности, формирование профессионального мастерства и творческого подхода к обучению, использование новых форм и методов преподавания, информационно-аналитическое обеспечение управления качеством учебного процесса и школьного образования, а также методология информационно-аналитического управления качеством образования, обеспечивающая индивидуальное, классное и параллельное развитие каждого ученика.

Ключевые слова: инновационное образование, интерактивные методы, ИКТ, интеллектуальное развитие, дидактическая технология, активная позиция, дерево решений, мозговой штурм, психологический стресс, информационно-аналитическая методология.

KIRISH

Innovatsiya so'zi "yangilik" degan ma'noni bildiradi. Lotin tilida XVII asr o'talarida paydo bo'lgan bu atama ma'lum bir sohaga yangi yo'nalishning kirib borishi va bu orqali shu sohada bir qator o'zgarishlarning yuzaga kelishini anglatadi. Shuni anglatadiki, innovatsiya, bir tomondan, faqat uni amalga oshirish jarayoni emas, balki uni muayyan ijtimoiy amaliyatga aylantirish faoliyatidir. Innovatsion faoliyat o'zining to'liq rivojlanishida o'zaro bog'liq bo'lgan ish turlarini o'z ichiga oladi va ularning umumiyligi real innovatsiyalarning paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda ta'lism jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shundaki, an'anaviy ta'limga o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish, o'rganish, tahlil qilish, hatto xulosalar chiqarishga

ham o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan birga boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi.

Innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lislari ta'minlaydi. "Innovatsiya" ingliz tilida "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Texnologiya" esa yunoncha "texnos" – san'at, mahorat va "logos" – fan so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "innovatsion texnologiya" – ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashuvni anglatadi.

Innovatsion texnologiyalar – bu pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrashdir. Ya'ni, pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrashi, ijodiy izlanishga majbur bo'lishi;
2. O'quvchi-talabalarda o'quv jarayoniga nisbatan doimiy qiziqishni shakllantirishi;
3. Har bir masalaga mustaqil va ijodiy yondashuv orqali bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishi;
4. Pedagog va o'quvchi-talabaning har doim hamkorlikda faoliyat yuritishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari va muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyalari bilan bog'liq bo'lib, o'qitish jarayonida zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofaviy ta'lim yoki turli texnik vositalardan foydalanishni anglatadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishidir. Ya'ni, o'qitish jarayonida maqsadga muvofiq natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtaida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikki tomon ijobiy natijaga erishadi. O'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, izlansalar, tahlil qilsalar, xulosa chiqarishsa, baholay olsalar, o'qituvchi esa bu faoliyatlar uchun sharoit yaratib bera olsa – aynan shu holat o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmeti o'ziga xos texnologiyaga ega. Ya'ni, o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natijaga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Bugungi kunda "innovatsion ta'lim" – bu o'z-o'zini rivojlantirishga qodir, barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishiga imkon beradigan, rivojlanishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Talabalarga yetkaziladigan zamonaviy ta'lim mazmuni zamonaviy bilim amaliyotiga mos keladigan kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa multimedia o'quv materiallari asosida, zamonaviy aloqa vositalari yordamida yetkazilishi zarur. O'qitishning zamonaviy usullari – bu faqat materialni passiv qabul qilish emas, balki o'quvchilarning o'zaro aloqasi, o'quv jarayoniga faol jalb qilinishi orqali shakllanadigan vakolatlarni rivojlantirishdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritishdir. Ularni samarali qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

1. AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar;
2. YaPT (yangi pedagogik texnologiyalar) bo'yicha xorijiy tajribalardan xabardorlik;
3. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish mahorati;
4. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati;
5. Bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish texnologiyasini egallagan bo'lishi;
6. Harakatli o'yinlardan samarali foydalanish;
7. Darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta olish imkoniyati;
8. Doimiy o'z ustida ishlash va har sohadagi yangiliklardan xabardor bo'lib borish.

O'qituvchi darsni innovatsion texnologiyalarga asoslab tashkil etar ekan, kompyuter, projektor, elektron doska kabi texnik vositalardan foydalanishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, ta'lim mazmuni shuncha boy bo'ladi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarga oid tasavvurlar hali barqaror va to'liq shakllanmagan. Har bir o'qituvchi ta'limga shaxsiy yondashuv orqali yangilik

kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar ko'pincha o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni – o'sib kelayotgan avlodni yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyati yuqori, har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu esa mamlakatimiz kelajagini yuksaltiradigan, o'zbek xalqining sha'nini dunyoga tanitadigan, intellektual va ma'naviy barqaror, malakali yosh kadrlarni yetishtirishni taqozo etadi. Kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosati uzlusiz ta'lim tizimi orqali shaxsnинг har tomonlama kamol topishini ko'zda tutadi. Shaxs uzlusiz ta'limda ham, kadrlar tayyorlashda ham ta'lim xizmatlarining iste'molchisi va ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, iste'molchi va ishlab chiqaruvchi bo'lgan yosh avlodning ertangi kunini belgilab beruvchi bilim va ko'nikmalari, o'z navbatida, malakali pedagog-o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan qiziqarli dars mashg'ulotlari orqali shakllanadi. Oliy ta'lim sifati intellektual bilimlar bilan boyitilib, ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida mustahkamlanishi zarur. Qiziqarli dars mashg'ulotlari bo'lajak pedagog yoshlarda fanga va kasbga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, ular darslarga faol qatnashadi, tajriba va salohiyatini oshiradi. Bu esa ularning kelajagiga qo'yilgan muhim qadamdir.

O'sib kelayotgan yosh avlodga bugungi kunda qanday e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, mamlakatimizda ilmiy yuksalish ham shuncha jadal sur'atda kechmoqda. Buni esa fan-texnika rivojida va barcha sohalarda ko'rib turibmiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik texnologiyalar sohasida olib borilgan tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion metodlarning ahamiyatini chuqur yoritadi. Azizzxo'jaeva N.N. pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning o'zaro bog'liqligini izohlab, amaliyotda qo'llaniladigan texnologik yondashuvlarning asosiya tamoyillarini asoslab bergen. Madyarova S.A. hamkor mualliflar bilan birgalikda zamonaviy o'qituvchining texnologik savodxonligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilgan.

Sayidahmedov N. va Ochilov M. o'z asarlarida innovatsion ta'limning konseptual asoslariga e'tibor qaratib, o'quv jarayonida yangicha yondashuvlarning zaruriyatini asoslaydi. Ayniqsa, Tolipov U. va Usmonboyeva M. tomonidan taklif etilgan pedagogik texnologiya modeli nazariy va amaliy jihatdan asoslangan bo'lib, innovatsion metodlarning strukturasini aniq ko'rsatib bergen. Farberman B.L. esa ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'qituvchi faoliyatidagi o'rnnini keng yoritib, zamonaviy darslarning samaradorligini oshirishdagi omillarni izohlaydi.

Shuningdek, Dadamirzayev G'. tomonidan tuzilgan izohli qo'llanma, Ibragimova G.N.ning talabalarda kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlari va Panfilova A.P.ning faol o'rganishga yo'haltirilgan texnologik modellari amaliyotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ularning yondashuvlari hozirgi ta'lim jarayonida interfaollik, axborot texnologiyalari va ijtimoiy faoliyot uyg'unlashtirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan amaliy kuzatuv, mavjud pedagogik tajribalarni tahlil qilish hamda tegishli adabiyotlarni o'rganish orqali yig'ildi. O'rganilgan holatlar zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati bilan bog'liq bo'ldi. Olingen ma'lumotlar kontent-tahlil usuli asosida tahlil qilindi hamda sifatli tahlil tamoyillariga tayanilgan holda ilmiy xulosa chiqarildi. Bu yondashuv orqali mavzuning nazariy va amaliy asoslarini o'zaro bog'langan tarzda aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'satdiki, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va ilg'or didaktik yondashuvlar orqali ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning faolligi va darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'qituvchining tarbiyaviy vazifalarini yanada samarali amalga oshirishiga imkon yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yanada ilg'or va ma'nani barqaror yosh avlodimizning ertangi kuni yuksak ma'naviyatini salmoqli darajada boyituvchi pedagog-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va salohiyatlari yanada zamonga xos va mos holda ijtimoiy-gumanitar fanlar uyg'unligida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek,

bu borada birlgiligidagi harakat yoshlarimizning barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil davlatda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millatning taqdiri va istiqbolini ta'minlash kabi jiddiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslari va amaliy yo'llarini yaratishda buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari va ta'limotlarini hayotimizga tadbiq etish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006 y.
2. Madyarova S.A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-Moliya, 2009, 240 b.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: "Moliya" nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: "Nasaf", 2000 y. – 80 b.
5. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: "Fan", 2005.
6. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: 2001.
7. Dadamirzayev G'. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha izohli tayanch so'z va iboralar. Metodik qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2008 yil, 30 bet.
8. www.ziyonet.uz
9. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari: talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. – 77 b.
10. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishkini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari. O'quv qo'llanma. – Ufa, 2002. – 86 bet.
11. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: faol o'rganish. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – M.: Akademiya, 2009.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.